



TARJIMA JARAYONIDA TRANSFORMATSIYALARNING  
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

*Leyla Dilmurodovna Akmalxo'jayeva*

*Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili fakulteti, 1-kurs magistranti,*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti*

[leylaanvarova9839@gmail.com](mailto:leylaanvarova9839@gmail.com)

*Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna*

*G'arb tillari kafedrası v.v.b desenti ,Ds*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiiy tarjima jarayonida qo'llaniladigan tarjima transformatsiyalarining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tarjima jarayonida ikki til tizimi o'rtasidagi grammatik, leksik va semantik farqlarni bartaraf etishda transformatsiyalarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tarjimashunos olimlar tomonidan taklif etilgan transformatsiya turlari, jumladan, almashtirish, qo'shish, tushirib qoldirish va qayta tuzish kabi usullar ko'rib chiqiladi. Maqolada badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida ushbu transformatsiyalarning qo'llanishi misollar orqali tahlil qilinadi hamda ularning matnning mazmuniy ekvivalentligini saqlashdagi roli asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari tarjima jarayonida transformatsiyalardan samarali foydalanish tarjimaning adekvatligi va tabiiyligini ta'minlashini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** *translation techniques, translation tools, translation procedures, translation transformations, ekvivalent*

**Kirish qismi:** Bugungi kunda dunyo xalqlari o'rtasidagi keng ko'lamli xalqaro aloqalar ko'p jihatdan tarjima vositasi orqali amalga oshirilmoqda. Natijada turli madaniyatlarning o'zaro muloqoti, ya'ni madaniyatlararo kommunikatsiyani o'rganishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Tarjimashunoslikda so'nggi yillarda antropotsentrik yondashuvning kuchayishi tarjima ekvivalentligi



masalasigabo'lgan qarashlarning yangicha talqin qilinishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, lingvomadaniy yondashuv tarjimaning asl matnga qanchalik darajada adekvat ekanligini aniqlashda muhim mezonlardan biri sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv tarjima jarayonini faqatgina usullar yig'indisi sifatida emas, balki kengroq tarixiy va madaniy kontekstda talqin etish imkonini beradi. Hozirgi davrda o'zbek adabiyoti namunalari dunyoning turli tillariga, xususan ingliz tiliga faol tarjima qilinmoqda. Bu jarayonda o'zbek tilidagi leksik birliklarning ingliz tilidagi mos ekvivalentlarini topish muammosi tarjimashunoslikda dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ma'lumki, har qanday tarjima asarining sifati uning asl matnga qanchalik darajada ekvivalentligi bilan belgilanadi. Shu sababli ekvivalentlik masalasi tarjima sifatini aniqlovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Tarjima nazariyasining muhim vazifalaridan biri esa ekvivalentlikka erishishning samarali usullarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llashdan iboratdir. Tarjima tarixidan ma'lumki, ekvivalentlikka erishish turli yondashuvlar asosida amalga oshiriladi va vaqt o'tishi bilan ayrim qarashlar zamon talablari asosida takomillashib boradi yoki yangicha ilmiy yondashuvlar bilan boyitiladi.

**Asosiy qism:** Tarjimashunoslikda matnning kichik birliklarini tarjima qilishda qo'llaniladigan metodlar turli terminlar orqali izohlanadi. Ular asosan **tarjima usullari** (translation techniques, translation tools), **tarjima jarayonlari** (translation procedures) hamda **tarjima transformatsiyalari** (translation transformations) kabi atamalar bilan ifodalanadi. Turli olimlar mazkur tushunchalarni har xil nomlar bilan talqin qiladilar. Masalan P. Nyumark, Vinye va Darbelnelar bu tushunchalarni tarjima jarayonlari deb ta'kidlashsa, L. Barkhudarov, V. Komissarov, E. Aznaurova va N. Qambarovlar tarjima transformatsiyalari deb talqin qilishadi. M. Ordudari, Molina va Hurtado Albirlar bo'lsa bu tushunchalarga nisbatan tarjima usullari terminini qo'llaydilar. Tarjimashunoslikda **tarjima jarayoni** termini ham qo'llanadi va u faqat matnni bevosita tarjima qilish bilan bog'liq faoliyatni emas, balki tarjimonning matn bilan bog'liq bo'lmagan ayrim



ishlarini ham o'z ichiga olishi mumkin. Buni E. Naydanning tarjima transformatsiyalariga bo'lgan munosabati va u bergan tavsifda ham ko'rish mumkin:

**I. Texnik jarayonlar:** aslyat va tarjima tillarini tahlil qilish, tarjimani boshlashdan oldin aslyat tili matnini batafsil o'rganib chiqish, semantik va sintaktik yaqinlikni aniqlash.

**II. Tashkiliy jarayonlar:** qilingan tarjimani doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish, boshqa tarjimonlar tomonidan qilingan mavjud tarjimalarni ayni matn bilan taqqoslash, tarjima matnining to'g'riligi va ta'sirchanligini aniqlash uchun tarjima tili o'quvchilaridan so'rash orqali matnning kommunikativ ta'sirini tekshirish va ularning bunga munosabatini o'rganish.

Tarjima transformatsiyalarini ilmiy jihatdan tizimlashtirgan olimlardan biri L. Barkhudarov hisoblanadi. U tarjima transformatsiyalarini to'rt asosiy turga ajratadi: **almashtirish, qo'shish, tushirib qoldirish va qayta tuzish**. Mazkur transformatsiyalar tarjima jarayonida eng ko'p uchraydigan usullar hisoblanadi. Almashtirish (substitution) transformatsiyasi tarjima jarayonida bir til birliklarini boshqa til birliklari bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda grammatik shakl, so'z turkumi yoki gap tuzilishi o'zgarishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi fe'l orqali ifodalangan fikr o'zbek tilida ot yoki sifat yordamida berilishi mumkin. Bu holat ikki tilning grammatik tizimidagi farqlar bilan bog'liq. **Qo'shish (addition)** transformatsiyasi esa aslyat matnida bevosita ifodalanmagan, ammo tarjima matnida mazmunni to'liq anglash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha birliklarni kiritish orqali amalga oshiriladi. Bunday qo'shimchalar ko'pincha madaniy, tarixiy yoki kontekstual ma'lumotlarni aniqlashtirish maqsadida qo'llanadi. Ayniqsa badiiy tarjimada qo'shish transformatsiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki u o'quvchiga matn mazmunini to'liq tushunishga yordam beradi. **Tushirib qoldirish (omission)** transformatsiyasi esa aksincha, tarjima matnida ortiqcha yoki zarur bo'lmagan ayrim birliklarni olib tashlash orqali amalga oshiriladi. Bunday holatlar asosan aslyat tilidagi ayrim grammatik shakllar yoki takroriy birliklar tarjima tilida tabiiy ko'rinmasligi sababli yuzaga keladi. Tushirib qoldirish transformatsiyasi matnni



soddalashtirish va uni tarjima tilining tabiiy me'yorlariga moslashtirish imkonini beradi. **Qayta tuzish (restructuring)** transformatsiyasi esa gapning umumiy sintaktik tuzilishini o'zgartirish bilan bog'liq. Bu transformatsiya ko'pincha murakkab gaplarni tarjima qilishda qo'llanadi. Masalan, ingliz tilidagi murakkab qo'shma gaplar o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda ikki yoki undan ortiq sodda gaplarga ajratilishi mumkin. Bunday o'zgarishlar matnning mazmuniga ta'sir qilmaydi, balki uning tarjima tilida tabiiy va ravon bo'lishini ta'minlaydi.

Tarjima jarayonida ba'zan asl matnda uchraydigan ayrim birliklar tarjima tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmaydi. Bunday holatlarda tarjimon turli transformatsiyalardan foydalanadi. Rus tarjimashunos olimi V. Komissarov shunday deb ta'kidlaydi: *“Трансформационный перевод заключается в передаче значения безэквивалентной единицы с помощью одной из грамматических трансформаций, которые наряду с лексическими трансформациями применяются при описании процесса перевода”*. Unga ko'ra, tarjima jarayonida grammatik transformatsiyalar leksik transformatsiyalar bilan birgalikda qo'llanadi va ular asl matn mazmunini tarjima tilida adekvat ifodalashga xizmat qiladi. Komissarov transformatsion tarjimaning qo'llanishini quyidagi misol orqali izohlaydi. Ingliz tilida **“with”** predlogi yordamida tuzilgan absolyut konstruktsiya rus tiliga tarjima qilinayotganda mustaqil gap orqali ifodalanadi. Bu esa sintaktik bo'linish transformatsiyasi sifatida qaraladi:

*The old capitalists and bureaucratic managements remained the directors and managers of the new nationalized industries, with a few right-wing trade-union officials thrown in for luck.*

Mazkur misolda ingliz tilidagi absolyut konstruktsiya rus tiliga tarjima jarayonida alohida gapga aylantirilgan. Natijada asl matn mazmuni saqlanib qolgan holda tarjima tilining sintaktik me'yorlariga mos ifoda yuzaga keladi.

*Старые хозяева и административное руководство стали директорами и управляющими новых национализированных предприятий. Кроме того, было добавлено для вида несколько правых профсоюзных чиновников.*



Bu holat tarjima transformatsiyalarining matn mazmunini yetkazishda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa qilib** aytganda yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, tarjima jarayonida transformatsiyalar muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan vositalardan biri hisoblanadi. Turli tillarning leksik, grammatik va stilistik xususiyatlari bir-biridan farq qilgani sababli asl matn mazmunini tarjima tilida to'liq va adekvat tarzda ifodalash uchun tarjimon turli transformatsiyalardan foydalanishga majbur bo'ladi. Tarjima transformatsiyalari aynan shu farqlarni bartaraf etish hamda matn mazmunini tarjima tilining me'yorlariga mos holda yetkazish imkonini beradi. Tadqiqot davomida tarjimashunoslikda matn birliklarini tarjima qilish jarayonida qo'llaniladigan metodlar turli terminlar orqali talqin qilinishi aniqlandi. Ayrim olimlar bu jarayonni tarjima jarayonlari deb atashsa, boshqalari uni tarjima transformatsiyalari yoki tarjima usullari sifatida izohlashadi. Bu esa tarjimashunoslikda mazkur masalaga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud ekanligini ko'rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yoldoshev, U. (2022). *Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari*. Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti.
2. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating*. Brill.
3. Komissarov, V. N. (1990). *Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)*. Vysshaya shkola.
4. Dosbaeva, N. (2021). *O'zbek nasriy adabiyoti ingliz tiliga tarjimalarining lingvomadaniy masalalari*. Usmon Nosir media.